

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,  
**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society  
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oly Majlis of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc**, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation  
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute  
**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE  
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute  
**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction  
**Judy Smetana CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Chrissy Lewis CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Ali Konak DSc**, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey  
**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi .....	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
<b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maximudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Zначение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ug'li	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

# СОДЕРЖАНИЕ СОДЕРЖАНИЕ



# SOLIQ YUKI SOLIQ TIZIMINING QANCHALIK SAMARALI EKANLIGINI ANIQLOVCHI MUHIM MEZON

To‘lakov Ulug‘bek Toshmamatovich

Termiz davlat universiteti,  
Moliya kafedrasи dosenti,  
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya:** Maqlada soliqlar mamlakat budgeti daromadlarining asosiy manbai ekanligi aniqlab berilgan. Soliq yukining mazmuni va maqsadi yoritilgan. Soliq tizimining samaradorligi soliq tushumlari tarkibi va iqtisodiyotga soliq yukining darajasiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Soliq yuki yuqori va past bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi farq davlat xarajatlari va soliq tizimi nuqtai nazaridan har bir mamlakatning iqtisodiy siyosati bilan bog‘liqligi isbotlangan. Soliq yukining optimal darajasini ta‘minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

**Kalit so‘zlar:** soliqlar, soliq tizimi, soliq yuki, soliq tushumlari, soliq yukini optimallashtirish.

**Abstract:** The article specifies that taxes are the main source of income for the country's budget. The meaning and purpose of the tax burden is explained. It is shown that the effectiveness of the tax system depends on the composition of tax revenues and the level of the tax burden on the economy. The difference between countries with a high and low tax burden has been proven to be related to each country's economic policies in terms of public spending and tax systems. The main priorities for ensuring the optimal level of the tax burden have been determined.

**Key words:** taxes, tax system, tax burden, tax revenues, tax burden optimization.

**Аннотация:** В статье указано, что налоги являются основным источником доходов бюджета страны. Объясняется смысл и цель налогового бремени. Показано, что эффективность налоговой системы зависит от состава налоговых доходов и уровня налоговой нагрузки на экономику. Доказано, что разница между странами с высоким и низким налоговым бременем связана с экономической политикой каждой страны с точки зрения государственных расходов и налоговых систем. Определены основные приоритеты обеспечения оптимального уровня налоговой нагрузки.

**Ключевые слова:** налоги, налоговая система, налоговое бремя, налоговые поступления, оптимизация налоговой нагрузки.

## KIRISH

Soliqlar davlat iqtisodiyotini va soliq to‘lovchilar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning alohida shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Samarali soliq tizimi budget va maqsadli jamg‘armalarga tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, davlat moliyasining ishonchli ishlashini ta‘minlash imkonini beradi. Mamlakat soliq tizimining tuzilishi uning iqtisodiy ko‘rsatkichlarining belgilovchi omili hisoblanadi. Yaxshi tuzilgan soliq tizimi soliq to‘lovchilar tomonidan rioya qilinishi oson va davlatning ustuvor vazifalari uchun etarli daromadlarni jaib qilgan holda iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘sishishi mumkin. Aksincha, yomon tuzilgan soliq tizimi qimmatga tushishi, iqtisodiy qarorlar qabul qilishni buzishi va iqtisodiyotga zarar etkazishi mumkin.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda soliq tizimining mayjud muammolari bilan bir qatorda soliq qonunchiligining beqarorligi, fiskal funksiyani afzal ko‘rish, soliq yukining notekisligi, soliq imtiyozlarining samarasizligi kabi bir qator boshqa muammolar yuzaga kelmoqda. Ushbu muammolar soliq to‘lovchilarining iqtisodiy va ishbilar-monlik faolligini sezilarli darajada pasaytiradi va mamlakat soliq tizimining samaradorligini murakkablashtiradi hamda unga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Soliq tizimi samaradorligining muhim ko‘rsatkichi mamlakat iqtisodiyotiga tushadigan soliq yukidir. Uning maqbul darajasi iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga ko‘maklashadi, bo‘shagan mablag‘larni mamlakat ishlab chiqarishini kengaytirish va investisiya jarayonlarini rag‘batlantirishga yo‘naltirish imkonini beradi.



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliq tizimini takomillashtirish muammolari va masalalariga A. Laffer, A. Smit, M. Fridman, A. Pigu kabi xorijiy olimlarning ishlarida katta e'tibor qaratilgan. Mamlakat iqtisodiyotiga soliq yukini baholash va optimal-lashtirish metodologiyasini o'rganishda o'zbek olimlaridan A. Vaxobov, I. Niyazmetov, U. Pardaev, A. Nazarov, A. Jo'raev va boshqalar katta hissa qo'shgan. Biroq makro darajadagi soliq yuki masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning katta hajmini hisobga olgan holda hozirgi kunda soliq yukini baholash va uni optimallashtirish chuqr o'rganishni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot mamlakat soliq tizimi samaradorligi ko'rsatkichi sifatida soliq yukini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish, soliq yuki darajasini aniqlash va uni optimallashtirish yo'llarini asoslashdan iborat.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Umuman olganda, soliq tizimi mamlakatning iqtisodiy ahvoliga va tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Soliqlarning roli har qanday davlatning hayotiyligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki ular budjet daromadlarining asosiy manbai sifatida moliya tizimining barcha bo'g'inlari qamrab oladi.

Soliq yuki davlat tomonidan belgilanadigan soliq og'irligining o'Ichovi hisoblanadi. U jismoniy va yuridik shaxslar daromadlariga, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha darajalarida qo'llaniladigan bevosita va bilvosita soliqlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. Bu yuk yalpi ichki mahsulotga nisbatan foizlarda ifodalanadi [1].

Mamlakatda soliq yukining mazmuni va maqsadi, xususan, uning yuqori va quyi chegaralari quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- bozor iqtisodiyotining rivojlanish darajasi;
- davlat tomonidan tartibga solish ko'lami va shakllari;
- milliy iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- aholi turmush darajasi;
- davlat daromadlaridan foydalanish yo'naliishlari;
- davlatning ichki va tashqi siyosati;
- soliq madaniyatining rivojlanish darajasi.

Ammo soliq yuki tushunchasining asosiy qismi davlat va soliq to'lovchilar o'tasida YaIM ulushini taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidir. Shunday qilib, soliq yukining chegarasi soliq solishning shartli punkti bo'lib, bunda soliq to'lovchilar manfaatlarini hisobga olgan holda ularning soliqqa tortilishi va rivojlanish uchun rag'batlantirish hamda budjetni to'ldirishning etarlligi nuqtai nazaridan davlat manfaatlarini hisobga olgan holda muvozanatga erishiladi [2].

Soliq solish nazariyasi va amaliyotida soliq yukini baholash davlat darajasida (makrodarajada) va alohida soliq to'lovchilar darajasida (mikrodarajada) amalga oshiriladi.

Soliq yukini aniqlash ketma-ketligi quyidagicha:

soliq solish subyektlari va obyektlari to'g'risidagi amaldagi qonun hujjalarni tahlil qilish va ularni tizimlash-tirish;

soliqlarni ularning to'lovchilari aniqlangan holda tahlil qilish va tasniflash;

soliq solish subyektlari bo'yicha to'lanadigan soliqlar summasi tasnifi;

turli soliq solish subyektlari tomonidan to'lanadigan soliq to'lovlaring umumiyligi summasini tahlil qilish va aniqlash;

mamlakat iqtisodiyotiga hamda yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq yuki ta'sirini aniqlash va tahlil qilish.

Mamlakat iqtisodiyotiga soliq yuki darajasi ta'sirini o'rganish juda muhimdir, chunki soliqlarning miqdori, ularning turlari va stavkalari, tabaqalanishi, soliq imtiyozlarining mavjudligi va asosliligi ko'p jihatdan ularning xo'jalik yurituvchi subyektlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish imkoniyati, ularning jamg'arish va investisiya qilish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar darajasini va uning samaradorligini oshirishni belgilaydi [3].

Davlat ehtiyojlari soliq solish darajasini va mamlakat iqtisodiyotiga soliq yukini belgilaydi. Moliyalashtirish manbasi soliqlar bo'lgan davlat xarajatlarining hajmi, tarkibi va samaradorligini tadqiq qilish soliq yuki darajasiga nisbatan obyektiv baho berish imkonini beradi.



2023-yilda O'zbekistonining yalpi ichki mahsuloti hajmi joriy narxlarda 1 kvadrillion 66,5 trln so'm yoki 90,8 mlrd dollarni tashkil etdi. Qayd etilishicha, O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foizga o'sgan. YALM aholi jon boshiga 29,3 mln so'm yoki 2494 dollarga etdi. Shuningdek, soj soliqlar miqdori 7,4 foizga o'sgan<sup>1</sup>.

Davlat budjeti tushumlarining asosiy manbai soliqlar bo'lganligi hamda 2020 yildan mamlakatimizda yangi soliq kodeksi joriy etilishi sababli 2020-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi konsolidasiyalashgan budjetining soliq tushumlari va boshqa daromadlari tarkibini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

**1-jadval. 2020-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi konsolidasiyalashgan budjetida soliq tushumlari tarkibi, %<sup>2</sup>.**

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil Prognoz
<b>Davlat budjeti daromadlari, mlrd so'm</b>	132 938	164 681	202 043	231 700	270 700
<b>shu jumladan:</b>					
<b>1. Bilvosita soliqlar - jami</b>	34,9	34,2	35,3	36,0	41,2
<b>2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS):</b>	23,5	23,3	25,5	22,5	27,3
- QQS bo'yicha tushumlar	30,3	32,1	35,4	31,8	36,4
- QQS bo'yicha qoplash	-6,8	-8,8	-9,6	-9,3	-9,1
<b>2.2. Aksiz solig'i</b>	8,8	7,9	6,3	6,8	8,4
<b>2.3. Bojxona boji</b>	2,7	2,9	3,6	4,1	5,5
<b>2. Bevosita soliqlar - jami</b>	34,0	35,8	31,9	31,5	31,6
<b>1.1. Foyda solig'i</b>	21,6	23,3	18,6	17,6	16,4
<b>1.2. Aylanmadan olinadigan soliq</b>	1,0	1,0	1,2	1,0	1,1
<b>1.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	11,4	11,5	12,6	12,9	14,2
<b>3. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i</b>	16,0	14,0	11,8	12,1	11,7
<b>3.1. Mol-mulk solig'i</b>	1,5	1,5	2,0	2,2	2,5
<b>3.2. Er solig'i</b>	1,8	2,5	2,6	3,0	2,7
<b>3.3. Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq</b>	12,3	9,6	6,9	6,6	6,1
<b>3.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq</b>	0,4	0,4	0,3	0,3	0,5
<b>4. Boshqa daromadlar va soliq bo'limgan tushumlar</b>	15,1	16,0	20,9	20,4	15,4

1-jadvaldan ko'rinish turibdiki, tahlil qilinayotgan yillarda O'zbekistonning konsolidasiyalashgan budjeti daromadlari oshgan. Lekin tegishli ravishda 2020–2023-yillar davomida soliq tushumlari va ularning daromadlardagi ulushi 84,9 foizdan 79,6 foizgacha kamayishi kuzatilmoqda. Davlat daromadlari tarkibida sezilarli o'zgarishlar bojxona boji tushumlarining ko'payishi bilan bog'liq bo'lib, ularning daromadlardagi ulushi 2023-yilda 2020-yildagi 2,7 foizdan 4,1 foizga ko'paygan. Shuningdek, davlat budjetining boshqa daromadlar va soliq bo'limgan tushumlari ulushining yillar davomida ko'payib borishini kuzatamiz.

1 Статистика агентлиги маълумоти.

2 Манба: муаллиф томонидан тузилган.



2023-yilda soliq tushumlari ulushining pasayishi natijasida ayrim soliq va yig‘imlar ulushining o‘zgarishi kuzatilmoxda. Jumladan, 2020-yilga nisbatan foya solig‘ining ulushi 4 foizga, aksiz solig‘i 2 foizga, er qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq 5,7 foizga, qo‘shilgan qiymat solig‘i 1 foizga kamaydi. Ushbu soliq turlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi pasayishiga soliq stavkalari, soliq imtiyozlari hamda soliqlarni optimallashtirish yoki soliq yukini kamaytirish maqsadida qabul qilingan islohotlar ta’sir ko‘rsatmoqda.

2024-yil prognoz ko‘rsatkichlarida foya solig‘i, er solig‘i, er qa‘ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari barcha soliq tushumlari va ularning daromadlardagi ulushi o‘tgan yillarga qaraganda oshganligini ko‘ramiz.

Makrodarajada soliq yukining umumiylarini baholash uchun olimlar uni aniqlashning quyidagi usullarini taklif qiladilar:

1) yalpi ichki mahsulotning faqat konsolidasiyalashgan budjet daromadlari orqali taqsimlanadigan qismini hisobga oluvchi soliq yuki  $S_y$  quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_y = B_t / \text{YIM} \quad (1)$$

bu yerda  $B_t$  - budjet tushumlari;

YIM - yalpi ichki mahsulot.

Ushbu hisoblash usuli soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq yukini real darajasini sezilarli darajada pasaytiradi;

2) yalpi ichki mahsulotning faqatgina konsolidasiyalashgan budjet daromadlari hisobiga emas, balki budjetdan tashqari jamg‘armalar badallari hisobiga ham qayta taqsimlanadigan qismini hisobga oluvchi soliq yuki  $S_y$  quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$S_y = B_t + \sum_{i=1}^n B_{t,i} / \text{YIM} \quad (2)$$

bu erda  $B_{t,i}$  - budjetdan tashqari jamg‘armalarga badallar.

Soliq yukini aniqlashning bunday uslubiyati soliq va yig‘imlar to‘lovchilari zimmasidagi katta real soliq yukini aks ettiradi.

Statistik ma’lumotlar asosida O‘zbekistondagi soliq yuki darajasini tahlil qilamiz (2-jadval).

**2-jadval. O‘zbekistonda 2020-2023 yillarda soliq yuki darajasi<sup>3</sup>.**

Ko‘rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil prognoz
<b>1. Konsolidasiyalashgan budjetga tushumlar, mlrd. so‘m</b>	132 938	164 681	202 043	231 700	270 700
<b>2. Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so‘m</b>	602 600	734 600	888 300	1 066 569	1 301 800
<b>3. Soliq yukining umumiylarini darajasi, %</b>	22,1	22,4	22,7	22,0	20,8

2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2020–2023-yillar davomida soliq yukining umumiylarini darajasi 22% atrofida barqarorligini kuzatamiz. Bu esa tadbirkorlik subyektlari va aholi ishlab torgan mablag‘larining to‘rtidan bir qismini davlat manfaatiga yo‘naltirayotganidan dalolat beradi.

2023-yilda 2020-yilga nisbatan soliq yuki darajasining 0,1% ga, o‘tgan yilga nisbatan esa 0,6% ga pasayganligini kuzatamiz. 2022-yilda soliq yukining umumiylarini darajasi 2020-yilga nisbatan 0,6% ga oshib, 22,7 foizni tashkil etdi. Lekin bu davrda yalpi ichki mahsulot va soliq tushumlarining sezilarli darajada oshib borishi kuzatildi.

2024-yil prognoz ko‘rsatkichlari o‘tgan yillarga nisbatan davlat budjetiga tushadigan tushumlar va YIM miqdorining oshganligini, soliq yuki darajasining pasayganligini ko‘rsatib turibdi. Umuman olganda O‘zbekistonda soliq yukini tahlil qilish dinamika barqaror ekanligini ko‘rsatdi.

Dunyo mamlakatlarda soliq tizimi xilma-xil bo‘lib, ularning soliq tuzilishi ham turlichadir. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar soliq solishning past darajasidan tortib juda yuqori darajasigacha sezilarli darajada farq qiladi. Hatto bir mamlakat doirasida ham soliqlar xarid qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning

<sup>3</sup> Манба: муаллиф томонидан тузиленган.




turiga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, ko'plab mamlakatlarda ilg'or soliqqa tortish tizimlari mavjud bo'lib, unda yuqori daromadli aholi past daromadli aholiga qaraganda o'z daromadlarining kataroq qismini soliq sifatida to'laydi.

Yevropada dunyodagi eng yuqori soliqlar mavjud. Soliqqa tortish darajasi eng yuqori bo'lgan dunyoning birinchi o'ntaligiga Daniya, Fransiya, Belgiya, Shvesiya, Italiya, Avstriya, Finlyandiya, Kuba, Norvegiya va Niderlandiya kiradi. Ularning barchasi Yevropa mamlakatlari hisoblanadi. Masalan, Shvesiya, Daniya, Fransiya va Belgiyada bu ko'rsatkichlar 40% dan oshadi. Ushbu mamlakatlarning ba'zilarida qo'shilgan qiymat solig'i nisbatan yuqori – ba'zi hollarda 21% gacha oshadi. Bundan tashqari, Germaniya va Fransiya kabi ba'zi Yevropa davlatlari nisbatan yuqori korporativ soliqlar bilan mashhur. Biroq, shuni ta'kidlash kerakki, barcha Yevropa mamlakatlarda ham soliqlar yuqori emas: Irlandiya va Kipr Yevropadagi eng past soliq stavkalariga ega bo'lib – mos ravishda 22,6% va 24,2%ni tashkil qiladi. Taqqoslash uchun ba'zi Osiyo mamlakatlarda soliq stavkalari Yevropadagiga qaraganda mo'tadilroq. Umuman olganda, butun dunyoda eng yuqori va eng past soliqlarga ega mamlakatlar o'rtaisdagi sezilarli farq har bir mamlakatning davlat xarajatlari va soliq tuzilmalariga nisbatan individual iqtisodiy siyosati bilan bog'liq.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston uchun mamlakat soliq tizimini takomillashtirish va soliq yuki darajasini optimallashtirishning samarali vositalarini izlash maqsadida soliq tizimlarini o'zgartirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish foydali hisoblanadi.

2021-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va O'zbekiston iqtisodiyotiga soliq yukini taqqoslashni amalga oshiramiz (1-rasm).



1-rasm. 2021-yilda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston iqtisodiyotida soliq yuki<sup>4</sup>.

1-rasmdan ko'rilib turibdiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida eng yuqori soliq yuki Daniyada (46,3%), Fransiyada (45,4%), Belgiyada (42,9%) hisoblanadi. Sharqiy Yevropa mamlakatlari eng past soliq yukiga ega: Ruminiya (14,6%), Bolgariya (20,3%) va Xorvatiya (22,2%) hisoblanadi. Shunday qilib, O'zbekiston iqtisodiyotiga soliq yuki (22,2%) bo'lib, Yevropa Ittifoqiga a'zo rivojlangan davlatlarga nisbatan past darajada.

Odatda, soliqqa tortishning yuqori darajasi ijtimoiy ta'minot va davlat sektorining yuqori darajasi bilan bog'liq. Biroq Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlarining iqtisodiy yutuqlari va ijtimoiy farovonligi soliq solish darajasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hal qiluvchi omili emasligini ko'rsatadi. Soliq siyosati samaradorligini yanada obyektiv baholash uchun mamlakat iqtisodiyotiga soliq yuki ko'rsatkichini budget xarajatlari hajmi bilan taqqoslashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2020-yilda PwC va Jahon banki guruhi tomonidan o'tkazilgan "Paying Taxes 2020" tadqiqoti va 190 davlatdagi soliq tizimlarining qiyosiy tahlili davlatlar va kompaniyalarga soliq to'lash osonligi bo'yicha xalqaro reytinglarda o'z o'rinalarini yaxshilashga ko'maklashadi. Shuningdek, soliq ma'muriyatlariga yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasini o'rganish va undan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston soliq tizimining samaradorligini baholash uchun soliqlarni to'lashning osonligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining shunga o'xhash ko'rsatkichlari bilan taqqoslasmaymiz (3-jadval).

4 Манба: муаллиф томонидан тузилган.

3-jadval. Yevropa Ittifoqi va O'rta Osiyo mamlakatlari soliq tizimi samaradorligini baholash<sup>5</sup>.

Mamlakatlар	Umumiylar reytingi (reytingdagi o'rin)	Soliqlarni to'lash osonligi bo'yicha baxolash	Soliqlar va badallarning umumiylar stavrasi, %	Talablarni bajarish vaqt, soatlar	Soliqlar soni
Irlandiya	4	94.6	26.1	81.5	9
Daniya	8	91.1	23.8	132	10
Finlyandiya	10	90.9	36.6	90	8
Estoniya	12	89.9	47.8	50	8
Latviya	16	89.0	38.1	168.5	7
Litva	18	88.8	42.6	95	10
Niderlandiya	22	87.4	41.2	119	9
Lyuksemburg	23	87.4	20.4	55	23
Kipr	29	85.5	22.4	119.5	16
Shvesiya	31	85.3	49.1	122	6
Ruminiya	32	85.2	20.0	163	14
Norvegiya	34	85.1	36.2	79	5
Ispaniya	35	84.7	47.0	143	9
Portugaliya	43	83.7	39.8	243	8
Avtstriya	44	83.5	51.4	131	12
Sloveniya	45	83.3	31.0	233	10
Germaniya	46	82.2	48.8	218	9
Xorvatiya	49	81.8	20.5	206	12
Chexiya	53	81.4	46.1	230	8
Slovakiya	55	80.6	49.7	192	8
Vengriya	56	80.6	37.9	277	11
Fransiya	61	79.2	60.7	139	9
Belgiya	63	78.4	55.4	136	11
Qozoqiston	64	78.2	28.4	186	10
O'zbekiston	69	77.5	31.6	181	9
Gresiya	72	77.1	51.9	193	8
Polsha	77	76.4	40.8	334	7
Bolgariya	97	72.3	28.3	441	14
Qirg'iziston	117	67.2	29.0	220	26
Italiya	128	64.0	59.1	238	14
Tojikiston	139	60.9	67.3	224	7

"Paying Taxes 2020" soliqlarni to'lashning osonligi reytingida O'zbekiston dunyodagi 190 mamlakat iqtisodiyoti orasida 69-o'rinni egalladi. Soliqlarni to'lash osonligining umumiylar bahosiga ko'ra, O'zbekiston (77,5) va Qozoqiston (78,2) birgalikda Belgiya (78,4), Fransiya (79,2), Gresiya (77,1), Polsha (76,4) kabi Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar bilan bir guruhda joylashgan. Umumiylar shakllantiruvchi asosiy ko'rsatkichlar bo'

<sup>5</sup> 2020 yillarda PwC va Jaxon banki guruxi tomonidan utkazilgan "Soliqlarni tulaash" tadqiqoti natiyalari <https://www.pwc.com/gx/en/services/tax/publications/paying-taxes-2020/overall-ranking-and-data-tables.html>



yicha vaziyat quyidagicha. Shunday qilib, 31,6% soliq va badallarning umumiyligi stavkasi O'zbekistonni Islandiya (31,9%), Livan (32,2%) va Liviya (32,6%) bilan bir guruhsiga birlashtiradi. O'zbekistonda soliq ma'muriyatichiligi uchun sarflangan o'rtacha vaqt yiliga 181 soatni tashkil etadi, Yevropa Ittifoqida esa bu ko'rsatkich 161 soatni tashkil etadi. O'zbekiston, Argentina, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Niderlandiya, Rossiya, Buyuk Britaniya va Ozarbayjon hamda yana bir qator davlatlarda soliqlar soni bir xil 9 tadir. Bu Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida eng past ko'rsatkich, eng yuqori ko'rsatkich esa Lyuksemburgdagi 23 ta soliq turi mavjud. Shunga qaramay, O'zbekistondagi soliq tizimi murakkab bo'lib qolmoqda, bu esa biznesni yuritishni qiyinlashtiradi. Lekin Qozog'istonning hisobga olmaganda qo'shni davlatlarga nisbatan reytingda yaxshi natijalarga erishganmiz [7].

Soliqlarni to'lash soliq to'lovchilarning davlat bilan universal, tez va potensial bahsli o'zaro aloqalaridan biridir. U inson tomonidan davlatni kengroq idrok etishga ta'sir ko'rsatishi va uning ta'siriga tushishi mumkin. Agar soliqlarni to'lash oson, to'g'ri,adolatli va ishonchli deb qaralsa hamda soliq to'lovchilar o'zlarining soliqlariidan qanday foydalilanilayotganini ko'ra olsalar va jamiyat uchun yaratilayotgan tegishli qiymatni anglay olsalar ularning soliq majburiyatlariga rivoj qilishlari ehtimoli ko'proq bo'ladi.

Fikrimizcha, davlat soliq siyosati samaradorligini ta'minlashda ijobji siljishlar ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasida mo'ljallangan strategik rejasiga muvofiq quyidagilar qo'mita oldiga qo'yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi:

soliq yukini kamaytirish;

yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish;

markirovkalash va raqamlashtirish tizimi samarasini oshirish va kengaytirish orqali soliq ma'murchiligi samaradorligini yanada oshirish;

soliq tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida biznes uchun qo'shilgan qiymat va foyda soliq stavkalarini uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash;

rasmiy sektor – nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo'lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta'minlash; soliq tizimini to'liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirdorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish.

Qo'yilgan maqsad va tashabbuslarni amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

soliq to'lovchilarning soliq hisobi va budjetga to'lovlariga sarflaydigan xarajatlari va vaqtini qisqartirish; tekshirishlar samaradorligini oshirish;

soliq qonunchiligi va elektron xizmatlarni yaxshilash orqali soliq qarzini to'lash jarayoni samaradorligini oshirish;

iqtisodiyotni norasmiy sektordan chiqarish va budjetga soliqlar hamda yig'imlar to'lanishini nazorat va monitoring qilish tizimini joriy etish;

prognozlashtirishning aniqligini oshirish va budget daromadlarini ko'paytirish;

soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, Davlat soliq xizmati va soliq to'lovchilar o'rtaqidagi aloqa tizimini takomillashtirish;

to'lovlar strategiyasi va tegishli maqsadli kompaniyalarni amalga oshirish orqali soliqlarni to'lash darajasini oshirish;

samarali va muvofiqlashtirilgan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va xalqaro axborot almashinuvini mustahkamash;

xalqaro soliq qonunchiligiga rivoj qilish darajasini oshirish.

Shunday qilib, O'zbekistonda soliqqa tortish tizimining tarkibiy qismi sifatida soliq yukini optimallashtirish masalasini samarali va barqaror soliq tizimi mavjud bo'lgan taqdirdagina hal qilish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq yuki darajasini o'rganish uni O'zbekiston soliq tizimining muhim elementi sifatida aniqlashga imkon beradi, bu uning samarali siyosatini amalga oshirish sharti bilan davlat budjetiga barqaror va etarli tushumlarni ta'minlaydi. Soliq yuki darajasini optimallashtirish soliq tizimi samaradorligini oshirish bilan bog'liq qator vazifalarni hal etishning samarali usuli hisoblanadi.

Mamlakatlar iqtisodiyotida soliq yukini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, soliq yuki yuqori va past darajadagi mamlakatlar o'rtaqidagi sezilarli farqlar ko'p jihatdan har bir mamlakatning davlat xarajatlari va soliq tuzilmalariiga nisbatan iqtisodiy siyosati bilan bog'liq. Shuning uchun soliq tizimi samaradorligini obyektiv baholash uchun mamlakat iqtisodiyotiga soliq yuki ko'rsatkichini davlat tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlar hajmi bilan taqqoslash lozim.

O'zbekistonda murakkab soliq tizimini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, soliq yukining optimal darajasini ta'minlashning asosiy ustuvor yo'naliishlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

soliq ma'muriatchiligi samaradorligini oshirish,

biznes yuritish va uning iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirlarni bartaraf etish,

shuningdek, soliq tizimini xalqaro me'yorlar va qoidalarga bosqichma-bosqich moslashtirish.

**Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati**

1. Тўраев Ш. (2021). Солик юкига оид илмий қарашларнинг ривожланиш тенденциялари. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" журнали. № 4, 324-335.
2. Тўраев Ш. (2022). Иқтисодиётда солик юкини баҳолаш йўналишлари. "Бизнес-эксперт" журнали. № 5, 324-335.
3. Ниязметов И. (2017). Ўзбекистон солик тизими: муаммолар ва такомиллаштириш йўллари. Монография. – 195-б.
4. Руденко Е. (2022). Налоговая нагрузка: методика расчета, оценка и анализ. Научный журнал "Эпомен", № 74, 65-74.
5. Тураев Ш. (2021). Налоговая нагрузка макроэкономической стабильности и воздействие ее на инвестиционную среду. 21(2), 4–8.
6. Юлдашева У. (2023). Влияние налоговой нагрузки на финансовую деятельность субъектов предпринимательства в Узбекистане и ее текущее состояние. Economics and Innovative Technologies, 11(5), 356–364.
7. "Paying Taxes 2020" PwC ва Жаҳон банки томонидан ўтказилган тадқиқот натижалари бюллетени.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023-йил 11-сентябрдаги "Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида"ги ПФ-158-сонли Фармони.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

